



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-dekabr)

67,1



**Xizmatlar sohasidagi
korxona va
tashkilotlar
ulushi, % da**

12 585,7



**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi, ming
so'mda**

67,0



**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi, % da**



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda

Yillar

2025

7 193

2024

8 759

2023

10 761

2022

10 050

2021

9 788

Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar
(1- yanvar holatiga ko'ra)

2025- y.

67,1

Jami faoliyat
ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar
soniga nisbatan
ulushi, % da

63,5

2021- y.

Xizmatlar sohasida yangi tashkil
etilgan korxona va tashkilotlar
(yanvar–dekabr)

Soni, birlikda

2024

1 169

2023

1 322

2022

1 160

2021

1 402

2020

1 680

Yillar

63,1

2024- y.



Jami yangi tashkil
etilgan korxona va
tashkilotlar soniga
nisbatan ulushi, % da

2020- y.


55,8

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1- yanvar holatiga ko'ra)




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-dekabr)




Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-dekabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ Grafikda va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan, 2023- yili hajmi va 2024- yil yanvar-dekabr oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda shakllantirilgan.



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-dekabr)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Sirdaryo viloyati ¹⁾	11 609,1	100,0	112,2
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	3328,1	28,7	115,8
Shirin	101,9	0,9	116,1
Yangiyer	549,0	4,7	118,7
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	602,6	5,2	107,2
Guliston	329,5	2,8	113,4
Mirzaobod	352,4	3,0	111,3
Oqoltin	245,7	2,1	112,0
Sardoba	291,9	2,5	112,9
Sayxunobod	319,2	2,7	107,8
Sirdaryo	1033,7	8,9	113,9
Xovos	374,0	3,2	113,7

¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-dekabr)

■ Hajmi, ming so'mda + O'sishi, % da


Guliston shahri	33 049,4	+	+12,4
Yangiyer shahri	11 319,8	+	+16,0
Sirdaryo tumani	7 474,4	+	+11,9
Shirin shahri	5 251,1	+	+15,5
Oqoltin tumani	4 372,3	+	+10,4
Mirzaobod tumani	4 329,5	+	+9,0
Boyovut tumani	4 298,1	+	+5,2
Sardoba tumani	4 117,6	+	+11,2
Guliston tumani	4 103,2	+	+11,1
Sayxunobod tumani	3 831,5	+	+6,5
Xovos tumani	3 624,4	+	+11,7

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-dekabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxona subyektlarining ulushi **67,0** foizni, shu jumladan, **46,1** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar (2024- yil yanvar-dekabr)

Nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	11 609,1	100,0	112,2
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	453,5	3,9	111,8
Moliyaviy xizmatlar	2 409,8	20,8	114,5
Transport xizmatlari	1 116,1	9,6	120,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 047,4	9,0	120,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 556,8	30,6	110,2
Savdo xizmatlari	1 999,7	17,2	111,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	228,2	2,0	106,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	303,4	2,6	104,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	266,4	2,3	106,9
Ijara xizmatlari	138,4	1,2	118,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	215,3	1,9	114,2
Shaxsiy xizmatlar	175,8	1,5	105,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	68,0	0,6	110,8
Boshqa xizmatlar	677,7	5,8	111,2


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr, mlrd so'mda)

Guliston shahri	1 574,1
Sirdaryo tumani	167,9
Boyovut tumani	134,1
Sayxunobod tumani	100,4
Xovos tumani	84,1
Sardoba tumani	80,4
Guliston tumani	71,7
Oqoltin tumani	67,9
Yangiyer shahri	65,6
Mirzaobod tumani	49,0
Shirin shahri	14,6

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024- yil yanvar-dekabr, % da)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar - dekabr** oylarida **94,2** foizni tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Guliston shahrining ulushi **65,3** foizni yoki **1 574,1** mlrd so'mni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **93,8 %**.


Guliston shahrida transport xizmatlari hajmi **253,7** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **120,2 %** ni tashkil etdi.

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida transport xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)





¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda


⚙ O'sishi, % da

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi¹⁾ (yanvar-dekabr)


2024- yil yanvar-dekabr avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlari hajmi **1 047,4** mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **9,0 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari
(2024- yil yanvar-dekabr)



Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi
(2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

2024- yilning yanvar - dekabr oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **61,6** foizni tashkil etdi.



Savdo xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr) ¹⁾



Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)



Sirdaryo tumani	426,1	+17,0
Guliston shahri	403,6	+13,3
Yangiyer shahri	189,1	+15,1
Xovos tumani	130,0	+11,3
Mirzaobod tumani	128,0	+14,8
Boyovut tumani	109,1	-4,1
Sayxunobod tumani	104,0	+2,1
Guliston tumani	93,2	+15,3
Sardoba tumani	84,8	+16,3
Oqoltin tumani	74,7	+8,6
Shirin shahri	31,0	+14,3

¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda


○ O'sishi, % da




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-dekabr** oylarida ularning ulushi **85,2** foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)




¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

Hajmi, mlrd so'mda

✦ O'sishi, % da


Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr) ¹⁾



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-dekabr** oylaridagi ulushi **59,8 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar - dekabr)



¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda


Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi, % da


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi¹⁾

(yanvar-dekabr)

2024- yilning yanvar - dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi **20,6** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr)





¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr) ¹⁾



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **97,4** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr)




¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

2024- yilning yanvar - dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **99,2** foiz.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar – dekabr, mlrd so'mda)




2020- yilning yanvar – dekabr oylariga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **74,4** mlrd so'mga oshib, **138,4** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024- yil yanvar – dekabr** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **34,8** % ni tashkil etdi.

¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda


Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar–dekabr)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **23,1** foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar–dekabr)



¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

 Hajmi, mlrd so'mda  O'sishi, % da

Shaxsiy xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida shaxsiy xizmatlar (2024- yil yanvar–dekabr, mlrd so'mda)



2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida shaxsiy xizmatlar hajmi **36,7** mlrd so'mga oshib, **175,8** mlrd so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida sataroshlik xizmatlari ulushi **67,7** % ni tashkil etdi.

¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.